

**Mustaqil O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashda  
konstitutsiya va boshqa tuzilmalarning roli va ahamiyati**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Ommaviy huquq fakulteti*

*3-kurs talabasi Shoyimqulov Oybek*

[Oybek1shoyimqulov@gmail.com](mailto:Oybek1shoyimqulov@gmail.com)

+998939983330

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha olib borgan siyosati, inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy huquqiy kafolati, shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlar davrida inson huquq va erkinliklarini to'la-to'kis huquqiy kafolatlash haqida.*

**Kalit so'zlar:** *huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, mustaqillik, konstitutsiya, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, davlat organlari, mansabdor shaxslar, huquqiy kafolat, virtual huquqlar, virtual majburiyatlar*

**Роль и значение конституции и других структур в обеспечении  
прав человека в независимом Узбекистане**

**Аннотация:** *Данная статья освещает политику направленную на обеспечение прав и свобод человека, защиту конституционных прав и свобод человека после обретения независимости Республики Узбекистан, а также обеспечение полноценной правовой гарантии прав и свобод человека во времена конституционных реформ.*

**Ключевые слова:** *правовое демократическое государство, гражданское общество, независимость, конституция, основные права и свободы человека и гражданина, Организация Объединенных Наций,*

*государственные органы, должностные лица, правовые гарантии, виртуальные права, виртуальные обязанности.*

### **The role and importance of the constitution and other structures in ensuring human rights in independent Uzbekistan**

**Annotation:** *This article describes the policy of the Republic of Uzbekistan to ensure human rights and freedoms, the constitutional legal guarantee of human rights and freedoms, as well as the full protection of human rights and freedoms during the period of constitutional reforms.*

**Key words:** *legal democratic state, civil society, independence, constitution, basic rights and freedoms of people and citizens, United Nations, state bodies, officials, legal guarantee, virtual rights, virtual obligations*

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilgan har mamlakatda inson, uning manfaatlari huquq va erkinliklari birinchi o'rinda ta'minlanishi lozim. Zotan, bugungi davrdagi davlatning asosiy faoliyati "Davlat inson uchun" prinsipi asosida amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardan boshlab insonning eng muhim huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha bir qator tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirdi. Shubhasiz, eng birinchi huquqiy qadamlardan 2023-yil 30-aprelda referendum natijalariga ko'ra qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bo'ldi. Asosiy qomusimizning II bo'limi bevosita "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, unda fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari konstitutsiyaviy-huquqiy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, bosh qomusimizda nafaqat inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat belgilab qo'yilgan, shuningdek, "davlat fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlashi" qat'iy ravishda

mustahkamlangan. Bu esa, tom ma'noda, inson huquq va erkinlarining huquqiy kafolatidir. Asosiy qonunimizda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini huquq va manfaatlarini ta'minlashning huquqiy kafolati bilan birga xorijiy mamlakat fuqarolarining huquq va erkinliklari kafolati ko'rsatib o'tilgan. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi doimiy vakolatxonasi quyidagicha tushuntirish beradi: ***“O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi qanday olingan bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun to'liq tengdir. Bu har bir insonga mamlakat hayotining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarida to'liq ishtirok etish imkonini beradi. Bundan tashqari, u ba'zi majburiyatlarni yuklaydi. Tabiiyki, davlat o'z hududida va undan tashqarida O'zbekiston fuqarolarining manfaatlari va erkinliklarini himoya qilishga majburdir. O'zbekiston fuqarolari kelib chiqishi, irqi, millati va boshqasidan qat'i nazar tengdirlar. Konstitutsiyada O'zbekiston fuqarosi bo'lgan barcha millat va elatlarning tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishi kafolatlangan.*”**<sup>1</sup> Albatta, so'zsiz inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy huquqiy darajada mustahkamlanib qo'yilishidan tashqari, uning amaliy ijrosini ta'minlash davlatning birlamchi funksional maqsadi bo'lishi lozimligini yuqorida ta'kidlab o'tildi.

Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik va ma'muriy islohotlar natijasida davlat organlarining insonning eng muhim huquqlarini ta'minlash bo'yicha chinakam fundamental rol ahamiyat kasb etishi davlatimiz tomonlaridan ham ko'p bora ta'kidlandi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 19 oktyabrda bo'lib o'tgan VIII s'ezdda: ***“Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi”***<sup>2</sup>— deb ta'kidlagan edilar. Bu bilan esa Konstitutsiyamizning 2-moddasida qayd etilgan: ***“Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar”*** normasi so'zda emas, amalda ta'minlashi uchun o'ziga xos asoslardan biri bo'ldi. Bundan tashqari, shuni alohida ta'kidlash

---

<sup>1</sup> Konstitutsiyaning roli va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining BMTdagi vakolatxonasi. (Wikipedia.org)

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/>

lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish va konstitutsiyamizda aks ettirish bilan birga, ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi!, shuningdek, mamlakatimizda ham insonning eng muhim huquqlarini ta'minlash bo'yicha qator tashkiliy tuzilmalar tashkil topdi. Xususan, Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Ya'ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi.

Davlatning birlamchi maqsadi inson huquq va erkinlarini ta'minlash ekanligi taniqli huquqshunoslar tomonidan ham ta'kidlab o'tildi. Xususan, ***“Avvalo, shuni qayd etishni istardimki, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng har bir sohada tub islohotlar jarayoni boshlandi”***, — deydi Akmal Saidov. — ***“Ayniqsa, inson huquqlarini ta'minlash borasida 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining***

*O‘zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqbolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xalqaro huquqiy hujjat bo‘ldi.*<sup>3</sup>”

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning subyekti sifatida insonning huquq va erkinliklarini xalqaro miqyosda ta‘minlash hamda o‘ziga xos xalqaro aktlar ishlab chiqishda muhim tashabbuskorlardan biri bo‘lmoqda . Xususan , BMT Bosh Assambleyasida ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan dunyo miqyosida “Yoshlar Konvensiya”ni ishlab taklif qilishi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi hamda dunyo hamjamiyati tomonidan bu tashabbus iliq kutib olindi. Ushbu xalqaro miqyosdagi taklifga mutanosib ravishda, “Yangi O‘zbekiston”ning “Yangi Konstitutsiyasi”da “Yoshlar huquqlari” degan alohida bobning qo‘shilishi mamlakatimizda yoshlarning huquq va erkinliklarinini amalda konstitutsiyaviy-huquqiy darajada mustahkamlab qo‘yilishining yaqqol ifodasi bo‘ldi.

Shu bilan birga, bugungi texnikaviy-globallashuv davrida insonning “virtual olamdagi huquqlari”ni ta‘minlash ham davlat oldida turgan muhim va fundamental vazifalardan biridir! Barchamizga sir emas, hozirgi davrda bank kartalardan noqonuniy pul yechib olishlar va bunga bog‘liq bo‘lgan firibgarliklar kundalik odatiy tusga kirib bo‘lgan. Bundan tashqari, XXI asrda axborot texnologiyalarning yutug‘i natijasida biz nafaqat moddiy dunyoda huquq va majburiyatlarga egamiz, balki, virtual dunyoda ham huquq va majburiyatlarga ega bo‘lmoqdamiz! Aynan virtual dunyodagi ushbu huquqlarimizni himoya qilish uchun esa, albatta huquqiy muhofaza mexanizmi ishlab chiqilishi lozimdir.Ushbu jarayonda so‘zsiz raqamli texnologiyalar sohasidagi ijro organlari ham “ huquqiy himoya lokomotiv”laridan bo‘lishi lozimdir! ***Agarda ushbu ishlarni tizimli tashkil eta olsak, nafaqat, real hayotda, balki, virtual olamda ham insonnig huquq va erkinlklarini ta‘minlashda muhim qadam tashlagan bo‘lamiz!***

---

<sup>3</sup> Inson huquqlarini ta‘minlash-bosh maqsadimiz(<https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/>)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Konstitutsiyaning roli va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining BMTdagi vakolatxonasi. ([www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org))
2. Prezident ma'ruzasi (<https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/>)
3. Inson huquqlarini ta'minlash bosh maqsadimiz (<https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/>)